

XALQARO BAHOLASH TIZIMLARINING MILLIY TA'LIM TIZIMLARIGA TA'SIRI

Mo'minova Sarvinoz Qobiljon qizi

ADCHTI talabasi

Abduraxmanov Turaxon Saydullayevich

ADCHTI, Gid hamrohligi, madaniyatlararo
muloqot va tarjimashunoslik kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: PISA, TIMSS va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarining milliy ta'lim tizimlariga ko'rsatayotgan ta'siri, ularning o'quv dasturlari, baholash mezonlari, pedagogik yondashuvlar hamda ta'lim siyosatini takomillashtirish jarayonidagi o'rni juda muhim. Ushbu maqolada, xususan, O'zbekistonda xalqaro baholash natijalari asosida amalga oshirilayotgan islohotlar, Prezident qarorlarida belgilangan vazifalar, kompetensiyaga asoslangan o'quv dasturlarining joriy etilishi, o'qituvchilar malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilish hamda ta'lim sifatining monitoringini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amaldagi tadbirini o'rganiladi. Shuningdek, STEAM ta'limi, raqamli infratuzilma, tadqiqotga asoslangan o'qitish va innovatsion pedagogika elementlarining joriy etilishi milliy ta'lim tizimining global talablar bilan uyg'unlashuviga xizmat qilayotgan omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot xalqaro baholashlarning nafaqat diagnostik mexanizm, balki ta'limni tizimli modernizatsiya qiluvchi strategik vosita ekanligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: xalqaro baholash, PISA, TIMSS, PIRLS, ta'lim sifati, funksional savodxonlik, kompetensiya, ta'lim siyosati, monitoring.

Xalqaro baholash tizimlari zamonaviy ta'limning global tendensiyalariga mos ravishda milliy ta'lim tizimlarini isloh qilishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. PISA, TIMSS va PIRLS kabi dasturlar o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki bilimni amaliyotda qo'llay olish, real hayotiy vaziyatlarda hal qila olish, tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyalarini aniqlaydi. Shu bois ushbu baholashlarda ishtirok etish davlatlar ta'lim siyosati uchun strategik ahamiyatga ega. O'zbekiston ham mustaqillikning

yangi bosqichida ta'lim sifatini oshirish, global maydondagi raqobatbardoshlikni ta'minlash hamda yoshlar bilimini xalqaro mezonlar asosida baholash maqsadida xalqaro baholash tizimlarini faol joriy etib bormoqda. Mamlakatimizda so'nggi yillarda qabul qilingan Prezident qarorlari va davlat dasturlarida xalqaro baholashda ishtirok etish, ta'lim sifatini oshirish va o'qituvchilarni zamonaviy talablar asosida tayyorlash masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Jumladan, PQ-4312-sonli qaror xalqaro baholash dasturlarini joriy etish mexanizmlarini yaratish, PF-5712-son farmon esa ta'lim sifatini xalqaro reytinglar orqali baholash va hududlar kesimida ta'lim monitoringini kuchaytirishni nazarda tutadi. Ushbu hujjatlar asosida respublikada o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish, milliy baholash tizimini yaratish, ta'lim muassasalarining faoliyatini ochiq va shaffof yuritish, maktablar o'rtasidagi farqlarni aniqlash bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi.

Xalqaro baholash dasturlari o'quv dasturlarining mazmuniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Maktablarda kompetensiyaga asoslangan ta'limga o'tish, fanlararo integratsiya, hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar ulushining oshishi kabi o'zgarishlar amalga oshirildi. 2021-yilda tasdiqlangan Milliy o'quv dasturi aynan PISA va TIMSS talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi. Darsliklarning yangi avlodi yaratilib, ularda tahlil, fikrlash, solishtirish, xulosa chiqarish, grafik va statistik ma'lumotlar bilan ishlash kabi ko'nikmalarni rivojlantiruvchi topshiriqlar keng joriy etildi. Matematika, ona tili, biologiya, fizika kabi fanlarda o'quvchilardan fikrlashni talab qiladigan murakkab, kontekstual masalalar soni oshirildi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki amaliy fikrlash salohiyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O'qituvchilar malakasini oshirish masalasi ham xalqaro baholash asosiy talablaridan biri sifatida davlat siyosatining diqqat markaziga aylangan. PQ-4884-son qaror asosida o'qituvchilarning malakasini oshirish kredit-modul tizimiga o'tkazildi, PISA va TIMSS standarti bo'yicha tayyorlov dasturlari yaratildi. Respublikada PISA va TIMSS metodik markazlari tashkil etildi, ular o'qituvchilarni xalqaro formatdagi topshiriqlar bilan ishlashga o'rgatmoqda. Natijada o'qituvchilarda formatif baholashdan foydalanish, o'quvchini mustaqil fikrlashga yo'naltirish, izlanishga undash, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi strategiyalardan foydalanish ko'nikmalari mustahkamlanmoqda. Bu esa

dars jarayonining faolligini oshirib, natijada o'quvchilarning o'zlashtirish darajasida sezilarli o'zgarishlar yuzaga kelmoqda.

Ta'lim sifatining monitoringi ham xalqaro baholashlardan keyingi asosiy yo'nalishlardan biridir. O'zbekistonda Ta'lim sifatini baholash agentligining tashkil etilishi xalqaro mezonlarga mos ravishda ta'lim tizimini baholash imkonini berdi. Hudud va maktablar kesimida savodxonlik darajasini tahlil qilish, past ko'rsatkich qayd etilgan hududlarda maxsus dasturlar ishlab chiqish, ta'lim sifati ustidan yagona statistika yuritish imkoniyati yaratildi. Bu esa ta'lim tizimining holati bo'yicha aniq va asosli xulosalar berishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, xalqaro baholashlar ta'lim tizimining modernizatsiyasida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishga ham turtki bo'ldi. O'zbekiston bo'ylab STEAM yondashuviga asoslangan maktablar soni ortdi, 2022–2024 yillar davomida 300 dan ziyod STEAM maktablari tashkil etildi. Bu maktablarda muhandislik fikrlashini rivojlantirish, texnologik jarayonlarni amaliy o'rganish, kreativ yondashuv va zamonaviy texnik vositalar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Raqamli ta'lim infratuzilmasi rivojlanib, "Onlayn maktab", "Elektron kundalik", EduMarket va Ziyonet kabi platformalarning joriy etilishi o'quv jarayonining raqamlashtirilishiga xizmat qilmoqda. Bu tizimlar o'quv jarayonini uzluksiz tashkil etish, masofadan o'qitish hamda o'qituvchi–o'quvchi–ota-ona o'rtasidagi axborot almashinuvini soddalashtirdi. Bundan tashqari, PISA talablariga mos ravishda tadqiqotga asoslangan o'qitish keng joriy qilinmoqda. O'quvchilarning ilmiy kuzatuv o'tkazish, eksperiment bajarish, muammolarga turli yechimlar ishlab chiqish, loyiha faoliyatida ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lim jarayoni yanada samarali bo'lib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro baholash tizimlari O'zbekiston ta'lim tizimini tubdan yangilash, o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, o'qituvchilar malakasini oshirish, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish va ta'limda innovatsion yondashuvlarni joriy etish jarayonida kuchli omilga aylandi. Bu tizimlar nafaqat ta'lim sifatini aniqlash, balki uni yaxshilashga qaratilgan strategiyalarni shakllantirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada milliy ta'lim tizimi global talablarga moslashib,

raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan avlodni tarbiyalashga yo'naltirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ahmedov A.I. *Xalqaro baholash dasturlari va ulardan foydalanish metodikasi*. – Andijon, 2025.
- 2.OECD. *PISA 2022 Assessment and Analytical Framework*. Paris: OECD Publishing, 2023.
- 3.IEA. *TIMSS 2019 International Report*. Amsterdam: International Association for the Evaluation of Educational Achievement, 2020.
- 4.IEA. *PIRLS 2021 International Results in Reading*. IEA, 2022.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5712-son Farmoni, “*Ta'lim sifatini oshirish va xalqaro baholash tizimlarini joriy etish to'g'risida*”, 2019-yil.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4312-son Qarori, “*Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*”, 2019-yil.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4884-son Qarori, “*Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*”, 2020-yil.
- 8.Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. *Yillik analitik hisobot*. – Toshkent, 2024.
- 9.Nazarov A., Xodjayev B. *Kompetensiyaga asoslangan ta'lim tizimida xalqaro baholash talablari*. – TDIU Ilmiy axborotnomasi, 2023.